



“PEDAGOGIK MEXANIZM” TUSHUNCHASINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA UNING XALQ OG‘ZAKI IJODI TADQIQOTLARIDAGI O‘RNI

Z.V.Teshaboyeva,

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil izlanuvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 6-oktabr 2025-yil Tasdiqlandi: 8-oktabr 2025-yil Jurnal soni: 16 Maqola raqami: 54 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1766 KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS	Maqolada o‘zbek pedagogika fanida “ma’naviy-axloqiy tarbiya” tushunchasining tuzilishi tahlil qilinib, tadqiqot maqsadlari uchun “pedagogik mexanizm” tushunchasining ishchi ta’rifi nazariy asoslanadi. Amaldagi pedagogika adabiyotida “pedagogik mexanizm” atamasi xalq og‘zaki ijodidagi tarbiyaviy ta’sir vositasi ma’nosida mustaqil termin sifatida qo‘llanilmaydi, milliy-ma’naviy meros ro‘yxatlarida esa, odatda, faqat yozma manbalar sanab o‘tilib, og‘zaki epik an’ana (jumladan dostonchilik) chetda qoladi. Mazkur bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida biz besh nazariy asosga (pedagogik texnologiya nazariyasi, notiqlik san’ati an’anasi, Sharq mumtoz pedagogik fikri, tarbiya metodlari tasnifi, qahramonlik eposining tarixiy-pedagogik maqomi) tayanib, “pedagogik mexanizm – badiiy-epik matnning ichki strukturasi singdirilgan, tinglovchining kognitiv, emotsional-qiymat va xulq-atvor komponentlariga majmuaviy ta’sir ko‘rsatuvchi, takrorlanuvchi kompozitsion-uslubiy vosita” degan ishchi ta’rifni taklif etdik. Ta’rif uch belgi (singdirilganlik, majmuaviylik, takrorlanuvchanlik) orqali asoslanadi va “Go‘ro‘g‘li” turkumi kabi qahramonlik eposi misolida keyingi tadqiqotlar uchun metodologik poydevor vazifasini o‘taydi.

Kirish. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada xalq og‘zaki ijodi namunalarining ya’ni ertaklar, dostonlar, maqollar, topishmoqlarning tarbiyaviy salohiyati yuksak manba sifatida ko‘p marta ta’kidlangan, ammo ularning aynan qanday ichki mexanizmlar orqali tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishi masalasi pedagogika fanida yetarlicha nazariy asoslanmagan. Xususan, “pedagogik mexanizm” tushunchasining o‘zi badiiy-epik matn ichidagi tarbiyaviy ta’sir vositasini anglatuvchi termin sifatida amaldagi pedagogika darsliklarida mustaqil, aniq ta’riflangan kategoriya sifatida uchramaydi.

Muammoning dolzarbligi yana bir jihat bilan kuchayadi: milliy-ma’naviy meros to‘g‘risida gap ketganda, pedagogikaga oid adabiyotlarda odatda faqat yozma-ilmiy va yozma-adabiy manbalar (mutafakkirlar, allomalar) sanaladi, og‘zaki epik an’ana esa bu ro‘yxatlarda deyarli uchramaydi. Mazkur maqolaning maqsadi “ma’naviy-axloqiy tarbiya” tushunchasining tarkibiy tuzilishini pedagogika fanining rasmiy manbalari asosida aniqlashtirish va shu negizda “pedagogik mexanizm”ning ilmiy jihatdan asoslangan ishchi ta’rifini taklif etishdan iborat. Vazifalar: 1) “tarbiya” va “axloqiy tarbiya” tushunchalarining genezisini ko‘rib chiqish; 2) “ma’naviy-axloqiy tarbiya”ning tarkibiy (kognitiv, emotsional-qiymat, xulq-atvor) modelini aniqlashtirish; 3) pedagogika fani manbalari tizimida badiiy-epik merosining maqomini belgilash; 4) “pedagogik mexanizm” tushunchasining ishchi ta’rifini bir necha nazariy asosga tayanib shakllantirish.

Adabiyotlar tahlili. Og‘zaki xalq ijodining tarbiyaviy-pedagogik salohiyati masalasi zamonaviy o‘zbek folklorshunosligida ham izchil tadqiq etib kelinadi, bu esa mazkur maqoladagi pedagogik tahlilga qo‘shimcha, mustaqil (nopedagogik) tasdiq manbai bo‘lib xizmat qiladi. Folklorshunos olim Sh.Turdimov bu masalani umumlashtirib shunday yozadi: “Har bir xalqning voqelikka o‘z estetik munosabati mavjud. Bunday munosabat asotirlar, ertaklar, maqol-matallar va bira’inchida, yirik hajmli epik asar – dostonlarda o‘zining badiiy ifodasini topgan bo‘ladi... dostonlar... bugungi kunda tobora globallashtirib borayotgan jamiyatda o‘zligini saqlab qolishning muhim omili, ertangi kungi taraqqiyot poydevori – ma’naviyatimizning sarchashmasi hamdir” [1, 3-b.]. Xuddi shu tezisni akademik T.Mirzaev ham umumnazariy darajada tasdiqlaydi: “Xalq og‘zaki badiiy ijodi milliy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida juda katta ijtimoiy qimmatga ega. Uning ijtimoiy qimmatini ma’naviy-ma’rifiy, g‘oyaviy-tarbiyaviy va estetik ahimiyati bilan belgilanadi” [2, 264-b.]. Demak, og‘zaki ijodning tarbiyaviy funksiyasi folklorshunoslik fanida uning boshqa funksiyalari bilan bir qatorda, lekin alohida ta’kidlanadigan mustaqil xususiyat sifatida e’tirof etiladi.

Folklorning tarbiyaviy funksiyasini “xalq pedagogikasi” tushunchasi orqali izohlash an’anasi ham keng tarqalgan. O.Safarov “shunday jarayonda kattalar bolalarni tarbiyalash maqsadlarini amalga oshirib pirovard-oqibatda o‘zbek xalq pedagogikasining asoslarini ham yaratganlar” deb xulosa qiladi [2, 308-b.]. Janrlar darajasida bu didaktik tabiat Q.Imomov tomonidan umumlashtiriladi: “Shunday ekan ertak,

doston, maqol, matal, naql, topishmoq, latifa va qissalarni ham bir butun holda naql atalishi bejiz emas. Chunki folklorning bu turlari u yoki bu darajada bo‘lsa hamki, didaktik ma’no anglatadi” [2, 47-b.]. Doston janri bu generalizatsiyada alohida sanab o‘tilishi, “Go‘ro‘g‘li” kabi qahramonlik dostonlarining ham, kichik janrlar qatori, folklorshunoslik nuqtai nazaridan didaktik asar hisoblanishini ko‘rsatadi.

Qahramon obrazining axloqiy mazmunini nazariy darajada folklorshunos olim J.Eshonqul tadqiq etgan: u qahramonning devga qarshi kurashini insonning ichki axloqiy kamoloti ramzi sifatida sharhlab, “Go‘ro‘g‘li” turkumi misolida aniq kuzatuv keltiradi: “Dostonda Go‘ro‘g‘li emas, Avaz yangi madaniy avlodning timsoli sifatida... Ahmon devni o‘ldiradi... u dostonda yovvoyi mayning so‘ngi, madaniy mayning boshlanishi sifatida tasvirlangan” [3, 99-b.], shuningdek “xalq dostonlarining hamda ertaklarida ramzlar... milliy tafakkur darajasini aniqlash uchun g‘oyat muhimdir... bunday tadqiqotlar shaxsni tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi” deb ta’kidlaydi [3, 116-b.]. Ushbu nazariy-folklorshunoslik dalillar majmui (Sh.Turdimov, T.Mirzaev, O.Safarov, K.Imomov, J.Eshonqul) pedagogika fanidan mustaqil ravishda, og‘zaki epik an’ana, jumladan “Go‘ro‘g‘li” turkumi tarbiyaviy tadqiqot ob’ekti bo‘la olishini tasdiqlaydi va mazkur maqoladagi “pedagogik mexanizm” tushunchasining nazariy zaminini kengaytiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Konseptual-tushunchaviy tahlil metodi (“Tarbiya”, “axloqiy tarbiya”, “ma’naviyat”, “qadriyat”, “ma’naviy-axloqiy tarbiya” tushunchalarining mazmuniy tarkibini aniqlashtirish uchun).
2. Manbasunoslik-kontent tahlili (O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida foydalaniladigan asosiy pedagogika darsliklarini tanlab, ulardagi tegishli bo‘limlarni tizimli o‘rganish orqali).
3. Qiyosiy-tasnifiy metod (turli mualliflar tomonidan berilgan ta’riflarni bir-biriga qiyoslab, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarni aniqlash uchun).
4. Sintetik-moddalashtirish metodi (olingan natijalarni yagona, ichki izchil ishchi ta’rif va komponentli modelga birlashtirish uchun).

Natijalar. “Tarbiya” tushunchasining genezisi va tarkibiy sifatlar tizimi. Pedagogika fani tarbiya hodisasini insoniyat tarixi bilan tengdosh hisoblaydi: ibtidoiy jamiyatda kishilar ta’lim-tarbiyaga oid ehtiyojlarini avvalo mehnat faoliyati jarayonida, katta avloddan kichikka tajriba uzatish yo‘li bilan qondirganlar [4, 5-b.]. Tarbiyaning maqsadi “shaxsni har tomonlamma va uyg‘un kamol toptirish, uning ma’naviy, axloqiy, estetik qadriyatlarini rivojlantirish” [4, 84-b.] sifatida belgilanadi. Tarbiya natijasida shakllanishi ko‘zda tutilgan asosiy ijtimoiy-axloqiy sifatlar qatorida mehnatsevarlik [4, 74-75-b.], vatanparvarlik [4, 75-76-b.], jasurlik – “kishida yuqorida sanab o‘tilgan barcha fazilatlar bo‘lsa-yu, jasurlik bo‘lmasa, u boshqa fazilatlardan hech kimga naf tegmaydi” [4, 77-b.] – va sahovatlilik [4, 78-b.] alohida ta’riflanadi. Ushbu to‘rt sifat qahramonlik eposidagi markaziy qahramon obrazining axloqiy tuzilishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos kelishi, og‘zaki epik an’ananing

tarbiyaviy vazifasini tushunishda tayanch kategoriya bo'lib xizmat qilishi mumkinligini ko'rsatadi.

“Axloqiy tarbiya” va “odoblilik” tushunchalari. “Axloqiy tarbiya” tushunchasi “tarbiya”ning umumiy kategoriyasidan torroq, lekin aniqroq mazmunga ega: u “oilada, mehnat jamoasi hamda keng jamoatchilik o'rtasida... qabul qilingan holda ularga rioya qilish hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan axloq va odob qoidalarini o'zlashtirish” sifatida ta'riflanadi [4, 57-b.]. Bunda “odoblilik” ijtimoiy sifat sifatida “kishi umuminsoniy qadriyatlari bilan birga milliy qadriyatlarni hamda qabul qilingan axloq va odob normalarini yaxshi bilishi va ularga rioya qilishi”ni taqozo etuvchi xislat deb izohlanadi [4, 65-b.]. – bu ta'rif “qadriyat” tushunchasining ikki qatlamli (umuminsoniy va milliy) tuzilishini ko'rsatadi va maqolaning keyingi xulosalarida “Go'ro'g'li” turkumidagi qadriyatlarni tahlil qilish uchun tayanch metodologik yo'nalma vazifasini o'taydi.

Milliy pedagogika tushunchasi va uning milliy-ma'naviy meros bilan bog'liqligi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik “milliy pedagogika” tushunchasining o'zida ham mustahkamlangan: milliy pedagogika – “muayyan davlat Konstitutsiyasi, ta'lim to'g'risidagi qonunlari hamda istiqbolli rivojlanish dasturi, jamiyat taraqqiyotining umumiy qonunlari, xalqning milliy-ma'rifiy merosi va ta'lim-tarbiya sohasida erishilgan jahon miqyosidagi yutuqlar asosida shakllangan... ta'lim-tarbiya nazariyasi, usul va uslublarini ifodalovchi ilm-fan majmui”dir [4, 3-b.]. Shu ta'rifdagi “xalqning milliy-ma'rifiy merosi” iborasi — “Go'ro'g'li” turkumi kabi xalq og'zaki ijodi namunalarining milliy pedagogika tarkibiy qismi sifatidagi maqomini nazariy jihatdan asoslab beradi va quyida ko'rsatiladigan metodologik bo'shliqni yanada aniqroq idrok etish imkonini yaratadi.

Milliy-ma'naviy meros ro'yxatlaridagi metodologik bo'shliq. M.Ochilov va N.Ochilova talabalarda milliy-ma'naviy merosni o'rganish zarurati asoslab, o'n olti nafar mutafakkir va alloma (Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, imom Buxoriy, az-Zamaxshariy, Ahmad Yassaviy, al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, al-Beruniy, ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqalar)ni ro'yxat qilib keltiradilar [5,

135–136-b.]. Diqqatga sazovor jihat shundaki, bu keng ro'yxatda faqat yozma-ilmiy va yozma-adabiy meros egalari sanab o'tilgan, og'zaki epik an'ana (dostonchilik, baxshichilik) umuman tilga olinmagan. Bu kuzatuv tasodifiy emas: u rasmiy pedagogika adabiyotida milliy-ma'naviy meros tushunchasi tor (asosan yozma) doirada tushunilishini, og'zaki epik meros esa bu tizimga hali to'liq kiritilmaganini ko'rsatadi va mazkur tadqiqot yo'nalishining ilmiy dolzarbligini bevosita tasdiqlaydi.

Pedagogika fani manbalari tizimida badiiy-epik merosining maqomi. Bu bo'shliqqa qaramasdan, pedagogika fanining o'zi badiiy-epik merosni rasmiy manba sifatida tan oladi. M.Ochilov va N.Ochilov o'z darsliklarida nazorat testi shaklida quyidagi savolni beradilar: “Oliy maktab pedagogikasining manbalari: A. Badiiy-pedagogik asarlar. B. Oliy ta'lim muassasalarining ish tajribasi. V. Avesto, Qur'on, Hadis va boshqa ilmiy adabiyotlar. *G. Hamma javoblar to'g'ri” [5, 240-b.]. Yulduzcha bilan belgilangan to'g'ri javob – “Hamma javoblar to'g'ri” – pedagogika fanining o'zi tomonidan “badiiy-pedagogik asarlar”ni, shu jumladan qadimiy diniy-falsafiy manbalar qatorida, fanning teng huquqli manbasi sifatida rasman tan olinganini ko'rsatadi. Bu – “Go'ro'g'li” turkumi kabi badiiy-epik asarni pedagogika fanining qonuniy manbasi sifatida tadqiq etishni bevosita asoslovchi metodologik dalildir.

“Ma'naviy-axloqiy tarbiya”ning uch komponentli tuzilmasi. Tadqiqot mavzusidagi markaziy birikma – “ma'naviy-axloqiy tarbiya” – M.Ochilov va N.Ochilova tomonidan mustaqil o'quv mavzusi darajasida ko'rib chiqilib, uning tayanch tushunchalar doirasi belgilanadi: “ma'naviy-axloqiy tarbiya, tarbiya jarayoni, tarbiya prinsiplari, milliy-ma'naviy qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy fazilatlar... ma'naviy-axloqiy bilimlar, axloqiy tajriba, axloqiy his-tuyg'ular, xulq, odat, iroda, motiv, g'oyaviy-axloqiy e'tiqod” [5, 134-b.]. Ushbu ro'yxatni tahlil qilish “ma'naviy-axloqiy tarbiya” tushunchasining uch tarkibiy komponentdan iborat ekanini ko'rsatadi: (1) kognitiv komponent – ma'naviy-axloqiy bilimlar, g'oyaviy-axloqiy e'tiqod; (2) emotsional-qiymat komponenti – axloqiy his-tuyg'ular, axloqiy tajriba; (3) xulq-atvor komponenti – xulq, odat, iroda. Ushbu uch komponentli tuzilma quyidagi jadvalda umimlashtirildi.

1-jadval

“Ma'naviy-axloqiy tarbiya” tushunchasining uch tarkibiy komponenti

Komponent	Tarkibiy unsurlar	Pedagogik mexanizm orqali namoyon bo'lish
Kognitiv	Ma'naviy-axloqiy bilimlar, g'oyaviy-axloqiy e'tiqod	Nasihat-vasiyat (didaktik monolog)
Emotsional-qiymat	Axloqiy his-tuyg'ular, axloqiy tajriba	Ramziy obraz va antiteza
Xulq-atvor	Xulq, odat, iroda	Ibrat-andoza va sinov

Tarbiya usullari va pedagogik texnologiya tushunchasi. Tarbiyaning amalga oshish yo'llari masalasida M.Ochilov va N.Ochilova muhim metodologik tezisni ilgari suradilar: “Oliy maktab talabalarida axloqiy sifatlar qandaydir biror universal shakl, vosita yoki usul yordamida emas, balki xilma-xil shakllar, vositalar va metodlar, har xil faoliyat turlari ta'sirida, ya'ni tarbiya tizimi natijasida shakllanadi” [5, 165-b.]. Shu mantiq asosida tarbiya metodlarining klassik tasnifi keltiriladi: “ishontirish metodi; aqliy xatti-harakatlarni mashq qilish metodi; namuna, ibrat ko'rsatish metodi; rag'batlantirish va jazolash metodlari” [5, 168-b.]. Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish masalasida esa N.X.Avliyakov va N.N.Musaeva YuNESKOning rasmiy ta'rifiga tayanadilar: “Pedagogik texnologiya – bu o'z oldiga ta'lim shakllarini maqbullashtirish vazifasini qo'yishni, texnika va inson resurslarini... hisobga olgan holda butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli yondashuvidir” [6, 17-b.]. Mazkur tasniflar (ishontirish, mashq, namuna-ibrat, rag'batlantirish-jazolash) maqolaning keyingi xulosasida shakllantiriladigan “pedagogik mexanizm” tushunchasining umumipedagogik ildizlarini ko'rsatadi: ular “Go'ro'g'li” turkumidagi alohida mexanizmlarning har birida (nasihat – ishontirish metodiga, ibrat-andoza – namuna ko'rsatish metodiga, yakuniy mukofotlanish – rag'batlantirish metodiga) to'g'ridan-to'g'ri mos keluvchi umumnazariy asos sifatida namoyon bo'ladi.

“Pedagogik mexanizm” tushunchasining ishchi ta'rif: besh nazariy asos. O'rganilgan umumipedagogikaga oid adabiyotlarda “pedagogik mexanizm” tushunchasi mustaqil, aniq ta'riflangan termin sifatida qo'llanilmaydi. [5, 100-b.]. Bu holat tadqiqotning tushunchaviy-terminologik yangiligini ko'rsatadi. Ishchi ta'rifni asoslash uchun besh nazariy manba jalb qilindi: birinchidan, YuNESKOning pedagogik texnologiya ta'rif – “texnika va inson resurslarini va ularning o'zaro ta'sir aloqasini hisobga olgan holda butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish... tizimli yondashuvi” [6, 17-b.] –

mexanizمنى tizimli, takrorlanuvchi xususiyatini ko'rsatadi; ikkinchidan, A.Xoliqovning pedagogik mahorat tarkibiy qismlari tasnifidagi “nutq malakasi va texnikasini mukammal o'zlashtirish”ning ustuvor o'rni [7, 20-b.] nutqning tarbiyaviy ta'sirdagi rolini ko'rsatadi; uchinchidan, O'rta Osiyo notiqlik san'ati an'anasidagi “nadimlar, qissago'ylar, masalgo'ylar, badihago'ylar, qiroatxonlar, voizlar, go'yandalar, maddohlar, qasidaxonlar” toifasi [7, 178-b.] og'zaki so'z san'atining mustaqil pedagogik maqomini tasdiqlaydi; to'rtinchidan, Forobiyning tarbiya usullari haqidagi qarashi – “chorlovchi ilhomlantiruvchi gaplar aytib o'quvchiga bilim va malakalarni vujudga keltiradi” [7, 33-b.]; beshinchidan, A.S.Makarenkodan keltirilgan – “o'quvchilar o'qituvchining... notiqlik san'atidan, so'z intonatsiyasini mukammal o'z o'rnida qo'llay olishidan... o'zlariga qabul qiladilar” degan iqtibos [7, 251-b.], bu baxshining doston aytish mahorati orqali tinglovchiga ta'sir etish jarayoniga to'g'ridan-to'g'ri parallel hisoblanadi.

Shu besh asosga tayanib, tadqiqotda “pedagogik mexanizm” tushunchasi quyidagicha ishchi ta'rif bilan belgilandi: pedagogik mexanizm – badiiy-epik matnning ichki strukturasi singdirilgan, tinglovchining kognitiv, emotsional-qiymat va xulq-atvor komponentlariga majmuaviy ta'sir ko'rsatuvchi, takrorlanuvchi kompozitsion-uslubiy vositadir. Ushbu ta'rifda uch muhim belgi ajratib ko'rsatiladi: a) matn ichiga “singdirilganlik” – mexanizm alohida didaktik ko'rsatma emas, balki badiiy to'qimaning organik qismi; b) “majmuaviylik” – mexanizm bir vaqtning o'zida uch komponentga ta'sir ko'rsatadi; v) “takrorlanuvchanlik” – mexanizm doston matnida tizimli ravishda, turli epizodlarda takror-takror namoyon bo'ladi.

Qahramonlik eposi orqali tarbiya an'anasining tarixiy-genetik ildizlari. A.Zunnunov ta'kidlashicha, “xalq pedagogikasi fan sifatida shakllanmagan davridayoq qabila a'zolari bolalarda mehnatsevarlik, jangovarlik, do'stlik, ahillik, mehr-oqibatlilik, insonparvarlik... axloqiy

fazilatlarini shakllantirish va rivoj toptirishga harakat qilganlar” [8, 12-b.], buni esa “Shiroq, To‘maris, Alpomish, Murodxon, Ravshan kabi afsonaviy qahramonlar tasvirlangan dostonlardan foydalanish” orqali amalga oshirganlar [8, 13-b.]. K.Hoshimov va S.Nishonova bu tezisni aniqlashtirib, “qahramonlik eposlarida ulug‘langan eng asosiy axloqiy xislatlar – jasurlik va mardlik” ekanini ko‘rsatadilar [9, 15-b.]. Zamonaviy oliy ta‘lim amaliyotida ham xuddi shu tamoyilning saqlanib qolgani M.Ochilov va N.Ochilova tomonidan tasdiqlanadi: “Axloqiy hislarni tarbiyalashda kishilarimizning mehnatda ko‘rsatayotgan jasorati va qahramonlik namunalari hikoya qiluvchi kitoblardan... o‘rinli foydalanish katta ahamiyatga ega” [5, 145-b.]. Bu tamoyilning mustaqillik davrida ham davom etgani Q.Ergashevning ma‘lumotlarida o‘z tasdiqini topadi. [10, 77-b.]. Bu to‘rt manbadan olingan dalillar – qadimgi davr, pedagogika tarixi, zamonaviy oliy ta‘lim amaliyoti va mustaqillik davrida xalq ta‘limi an‘analari kabi turli xronologik kesimlardan olingan bo‘lsa-da bir xil xulosaga olib keladi: qahramonlik mazmunidagi badiiy-epik asar orqali axloqiy tarbiya berish alohida izlanib topilgan metodik yangilik emas, balki ming yillik pedagogik an‘ananing uzviy davomi va mustahkam nazariy asosga ega yo‘nalishdir. Shu bilan birga, yuqorida tahlil qilingan barcha manbalarda “Alpomish”, “Manas” yoki umumiy “dostonchilik” hodisasi tilga olingan bo‘lsa-da, “Go‘ro‘g‘li” turkumi nomma-nom biror marta ham zikr etilmaydi. Bu holat mazkur maqolaning ilmiy bo‘shlig‘ini (muammoning o‘rganilganlik darajasi past ekanini) yana bir bor tasdiqlaydi.

Pedagogik mexanizmning yoshga oid psixologik asoslari. Pedagogik mexanizmning qaysi yoshdan boshlab samarali bo‘lishi mumkinligini aniqlash uchun bolalar nutqi va idrokining yosh davrlari bo‘yicha rivojlanish bosqichlarini ko‘rib chiqish zarur. D.A.Nurkeldieva va Ya.Ye.Chicherina bolalar kommunikativ faoliyatining to‘rt darajasini ajratadilar: I daraja (0-2 oylik) – gavda va boshning differensiallanmagan harakatlari; II daraja (6-12 oylik) – predmetli-harakatli aloqa vositalari; III daraja (12-18 oylik) – ma‘noli imo-ishora, tovushlar, intonatsiyaga taqlid; IV daraja – verbal (nutq orqali) aloqa [11, 21-22-b.]. Ayniqsa muhim kuzatuv – 2-3 yoshdagi bolalar haqida: “Ular kichik hajmdagi bog‘langan matnlarni: she‘r, ertak, hikoyalarning mazmunini tushunadi” [11, 41-42-b.]. Demak, bog‘langan badiiy-epik matn (jumladan doston parchalarini) tushunish qobiliyati insonda juda erta, maktabgacha ta‘lim davridayoq shakllanib boshlaydi. Shu bilan birga, maktabgacha yoshdagi bolalarni pedagogik jihatdan tekshirish metodikasida “umumqabul qilingan xulq normalariga rioya qilishi” alohida baholash mezonini sifatida ajratiladi: “Bolaning oilada va oiladan tashqari joylarda nutqiy va odob qoidalariga rioya qilishi, kattalarning talablari va iltimoslarini bajarishi, bolalar jamoasida intizomni tushunishi va unga rioya qilishini aniqlash zarur” [11, 64-b.]. Mazkur yoshga oid mezonlar tizimi pedagogik mexanizmning qaysi ta‘lim bosqichida qanday shaklda tatbiq etilishi mumkinligini aniqlashda konseptual andoza sifatida xizmat qiladi.

Muhokama. Taklif etilayotgan nazariy model xalqaro tajriba nuqtai nazaridan ham tasdiqlandi. “Go‘ro‘g‘li” turkumi o‘zbek xalqigagina xos emas, u turkman, ozarbayjon, qozoq, qirg‘iz kabi qardosh xalqlarda ham keng tarqalgan umumturkiy merosdir, bu esa 2015-yilda YuNESKOning Insoniyatning noadmiy madaniy merosi ro‘yxatiga turkman “G‘orog‘ly” dostonchilik san‘ati (“Epic art of Gorogly”, №01028) kiritilishi bilan rasman tasdiqlangan YuNESKOning rasmiy hujjatida doston tarbiyalaydigan aniq qadriyatlar ko‘rsatilgan: “mardlik, rostgo‘ylik, do‘stlik, bag‘rikenglik va adolat kabi qadriyatlarni targ‘ib qiladi” [12].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Turdimov Sh. “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. - Toshkent: Fan, 2011.
2. XX asr o‘zbek folklorshunosligi: Antologiya / tuzuvchilar: O.To‘laboyev, M.Jo‘rayev va b.; mas‘ul muharrir M.Jo‘raev. - Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2017.
3. Eshonqul J. Folklor: obraz va talqin. - Qarshi: Nasaf, 1999.
4. Ziyomuhammadov B. Pedagogika: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. - Toshkent: Turon-Iqbol, 2006.
5. Ochilov M., Ochilova N. Oliy maktab pedagogikasi. - Toshkent: Aloqachi, 2008.
6. Avliyakov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya. - Toshkent: Tafakkur Bo‘stoni, 2012.
7. Xoliqov A. Pedagogik mahorat: Darslik. - Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2011.

Diqqatga sazovor joyi shundaki, mazkur beshta qadriyat mazkur maqolada asoslangan uchta pedagogik komponent (kognitiv, emotsional-qiymat, xulq-atvor) tizimiga to‘liq mos keladi – bu moslik turkman va o‘zbek an‘analarining umumiy chuqur ildizdan oziqlanganini, demak taklif etilgan uch komponentli modelning faqat bir madaniyatga xos emas, balki kengroq, umumturkiy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek pedagogika fanining nazariy negizi (tarbiya, axloqiy tarbiya, ma‘naviy-axloqiy tarbiyaning uch komponentli modeli) bilan xalq og‘zaki ijodining tarbiyaviy salohiyati o‘rtasida uzviy, ammo hali to‘liq terminologik jihatdan rasmiylashtirilmagan bog‘liqlik mavjud. Bir tomondan, pedagogika fanining o‘zi badiiy-pedagogik asarlarni (jumladan, diniy-falsafiy manbalar bilan bir qatorda) o‘z manbasi sifatida rasman tan oladi – bu nazariy jihatdan “Go‘ro‘g‘li” kabi epik turkumlarni pedagogik tadqiqot ob‘ekti sifatida qonuniylashtiradi. Boshqa tomondan, amaldagi milliy-ma‘naviy meros ro‘yxatlari asosan yozma manbalar bilan cheklanib, og‘zaki epik an‘anani chetlab o‘tadi – bu ziddiyat mazkur maqolada taklif etilayotgan tadqiqot yo‘nalishining ilmiy dolzarbligini kuchaytiradi.

Taklif etilgan ishchi ta‘rif (pedagogik mexanizmning uch belgili modeli – singdirilganlik, majmuaviylik, takrorlanuvchanlik) bir qator amaliy ahamiyatga ega: u, birinchidan, badiiy-epik matn tarbiyaviy tahlil qilish uchun aniq metodologik asbob beradi; ikkinchidan, tarbiyaviy ta‘sim uch komponent (bilish, his-tuyg‘u, xulq) bo‘yicha ajratib o‘rganish imkonini yaratadi, bu esa keyingi, amaliy tadqiqotlarda (diagnostika, baholash mezonlari) foydalanish uchun qulay; uchinchidan, u mavjud pedagogik texnologiya va tarbiya metodlari nazariyasi (muammoli o‘qitish, rolli o‘yinlar, rag‘batlantirish-jazolash metodlari) bilan uzviy bog‘lanib, amaliy-metodik tizim qurishga yo‘l ochadi.

Ishlab chiqilgan nazariy model, shuningdek, tarbiya usullari nazariyasi (ishontirish, mashq, namuna-ibrat, rag‘batlantirish-jazolash metodlari) bilan ham izchil bog‘lanadi: har bir pedagogik mexanizm, mohiyatan, shu umumpedagogik metodlardan birining badiiy-epik matn ichidagi, kompozitsion jihatdan mustahkamlangan ko‘rinishidir. Bu bog‘liqlik maqolaning amaliy ahamiyatini oshiradi – taklif etilgan ishchi ta‘rif faqat mavhum-nazariy konstruktsiya bo‘lib qolmasdan, amaldagi pedagogika fanining tan olingan metod va texnologiyalari bilan uzviy bog‘langan, shuning uchun o‘quv-metodik amaliyotga (dars ishlanmalari, baholash mezonlari) tatbiq etish imkoniga ega.

Xulosa. Maqolada o‘zbek pedagogika fanining rasmiy manbalari asosida “ma‘naviy-axloqiy tarbiya” tushunchasining uch komponentli (kognitiv, emotsional-qiymat, xulq-atvor) tuzilishi aniqlashtirildi va “pedagogik mexanizm” tushunchasining besh nazariy asosga tayanuvchi ishchi ta‘rifi taklif etildi: pedagogik mexanizm – badiiy-epik matnning ichki strukturasi singdirilgan, tinglovchining uch komponentiga majmuaviy ta‘sir ko‘rsatuvchi, takrorlanuvchi kompozitsion-uslubiy vositadir. Aniqlandiki, amaldagi milliy-ma‘naviy meros ro‘yxatlarida og‘zaki epik an‘ana deyarli uchramaydi, bu esa “Go‘ro‘g‘li” turkumi kabi qahramonlik eposi misolida pedagogik mexanizmlarni tizimli tadqiq etishning ilmiy dolzarbligini tasdiqlaydi. Mazkur nazariy-metodologik asos keyingi tadqiqotlarda, xususan, “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi olti aniq pedagogik mexanizm (nasihat-vasiyat, ibrat-andoza, sinov, antiteza, ramz, yakuniy mukofotlanish)ning tipologik tahlilida hamda amaliy o‘quv-metodik tizim va tajriba-sinov ishlarida – qo‘llaniladi.

8. Zunnunov A. Pedagogika tarixi: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. - Toshkent: Sharq, 2004.

9. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. II qism: Darslik. - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.

10. Ergashev Q. O‘zbekistonda xalq ta‘limining rivojlanish tarixi. - Toshkent: O‘qituvchi, 1998.

11. Nurkeldieva D.A., Chicherina Ya.Ye. Ilk, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni psixologik, pedagogik va logopedik tekshirish. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.

12. Epic art of Gorogly. — UNESCO Intangible Cultural Heritage. - Elektron manba: <https://ich.unesco.org/en/RL/epic-art-of-gorogly-01028>